

**BOSHLANG'ICH SINF TABIATSHUNOSLIK DARSLARIDA
EKOLOGIK MUAMMOLARNI O'QITISHNING NAZARIY
AHAMIYATI**

Hakimova Shaxzoda Hamidjon qizi

BuxDPI II bosqich magistri.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf "Atrofimizdagi olam" darslarida ekologik muammolarni tahlil va talqin qilishning ta'limi asoslari ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ekologik muammo, olam va odam, boshlang'ich ta'lim, bolalar, ma'naviy yetuk, axloqli, pok insonlar, ekologiya, insoniyat, tabiat, o'simliklar dunyosi, hayvonlar olami, er, suv va hokazo.

Bolani tevarak-atrofdagi tabiat bilan tanishtirish, unda olam tuzilishi va tabiat hodisalari haqida boshlang'ich tasavvur hosil qilish, ilmiy dunyo-qarash kurtaklarini shakllantirish, tabiatga muhabbat uyg'otish va undan oqilona foydalanishni o'rgatish tabiatni o'rganish ta'limi asosida amalga oshiriladi. Tabiat bo'yicha standart ko'rsatkichlari bolaning tabiat va undagi hodisalar haqidagi tasavvurga ega bo'lish, ularni farqlay olish, qisqacha tavsiflab berish, amalda qo'llay olishga o'rgatish bilan belgilanadi.

Ushbu fan 1-2 sinflarda o'qitiladigan "Atrofimizdagi olam" kursining davomi hisoblanib, bunda o'quvchilarga tushunarli ravishda tabiat va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlik va ziddiyatlar o'rgatiladi.

O'quvchilar insonlar oldida turgan aniq ekologik muammolarni biladilar. Bunday muammolarga jonsiz tabiatni va tuproqni ifloslanishdan, yemirilish va kuchsizlanishdan saqlash; turli tirik mavjudotlar va ularning vakillarini saqlash; insonlar sog'ligini saqlashda tabiatni asrash kiradi.

Tabiatshunoslikni o'qitish bolalarda butun Yer yuzi tabiatini asrab-avaylash hissini shakllantiradi. O'quvchilar tabiatni asrash yuzasidan olib borilayotgan amaliy ishlar yuzasidan alohida ko'nigmaga ega bo'ladilar. O'quvchilarga o'lkamizning tabiat hodisalari va undagi jismlar haqida boshlang'ich bilimlar berish; sodda misollar bilan inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ko'rsatish; tabiatdan foydalanish va uni asrash bo'yicha inson faoliyati bilan tanishtirish; tabiatni asrash uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni hosil qilish va shu asosda tabiatga nisbatan maqbul dunyoqarashni shakllantirish; o'quvchilarni ekologik, etik, estetik, mehnat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

tabiatshunoslik kursini o‘qitishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Bolalarni o‘quv dasturi bo‘linmalariga muvofiq yangi bilimlar bilan qurollantirishgina emas, balki 1-2 sinflarda olgan tabiat haqidagi bilim-larini chuqurlashtirish tabiatshunoslik kursining vazifasi hisoblanadi. Tabiatshunoslik fanini o‘rgatish jarayonida o‘qituvchi quyidagi vazifalarga e’tibor berishi lozim:

1. Jonli va jonsiz tabiat, maktab atrofi, viloyat va o‘z yurtidagi kishi-larning mehnati haqidagi tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish;
2. Tabiat va kishilar mehnatidagi mavsumiy o‘zgarishlarni kuzatish;
3. Oddiy ilmiy dunyoqarashni shakllantirish maqsadida tabiatdagi voqelikni bolalar bilan doimiy kuzatib borish;
4. Aniq misollar asosida ashyolar va tabiat hodisalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqani ochib berish, tabiatning odamlar mehnatiga ta’sirini ko‘rsatish;
5. Tabiatni asrash yuzasidan o‘tkazilayotgan tadbirlar bilan tanishtirish;
6. Sanitariya-gigiena haqidagi bilimlarni shakllantirishda davom etish.

O‘quv jarayonida asosiy o‘rinni rollarga bo‘lingan o‘yinlar, tabiatga oid bo‘lgan badiiy adabiyotlarni o‘qish, munozaralar, tabiatni asrash uchun olib boriladigan amaliy ishlar, o‘quvchilar orasida tabiatni asrash haqidagi bilimlarni targ‘ib qilish kabilalar egallaydi.

Tabiatshunoslik fanini o‘rganishda kuzatish, ekskursiya, tajriba, amaliy ishlar yetakchi o‘rin tutadi. Bolalarni kuzatish usullariga o‘rgatish, ularning natijalarini kundalik daftarga belgilash, ular asosida xulosalar chiqarish davom ettiriladi. Ekskursiyalar o‘tkazishga, tabiat ashyolari va voqeligini tabiiy holatda o‘rganishga katta e’tibor beriladi. Bu ko‘rgazma asosida sinfda o‘tkaziladigan darslarga ham tegishli. “O‘zbekiston tabiatini asrash” mavzusini o‘rganishda o‘quvchilar Respublikamiz ekologik muammolari va tabiatni asrash ishlari bilan tanishadilar.

3-sinf Tabiatshunoslik (34 soat, haftasiga 1 soatdan)

Kirish (1 soat): Tabiatshunoslik nimani o‘rganadi? Tabiat. Jonli va jonsiz tabiat. Tabiat hodisalari.

Tabiatda havo va suv (4 soat): Bizni o‘rab turgan havo. Havoning ahamiyati. Shamolning hosil bo‘lishi. *Suvning xususiyatlari*. Suvning isitilganda kengayishi va sovitilganda siqilishi. Muzning erishi, suvning qaynashi va bug‘lanishi. *Tabiatda suv*. Okean, dengiz, muzliklar, yer osti suvlari, daryo, ko‘l. Yog‘inlar. Tabiatda suvning aylanishi. Suvni ifloslanish-dan muhofaza qilish. Suvni tejab sarflash.

Foydali qazilmalar (6 soat): Yer osti boyliklari. Metallar. Granit. Qum va gil.

Kalsitlar: bo‘r, ohaktosh, marmartosh. *Toshko ‘mir, uning hosil bo‘lishi.* Toshko‘mir – issiqlik manbayi. Toshko‘mirdan tayyorlanadigan mahsu-lotlar. Neft – qimmatbaho foydali qazilma. Neftdan olinadigan mahsulot-lar. Tabiiy gaz va undan foydalanish. Foydali qazilmalarni muhofaza qilish.

O‘simpliklar (11 soat): Tuproq va uning ahamiyati. Tuproqning tarkibi. Tuproqning hosil bo‘lishi. O‘simplikning tuproqdan oziqlanishi. *Atrofimiz-dagi o‘simpliklar.* Uyimiz va maktabimiz atrofidagi o‘simpliklar. O‘simplik-larning daraxt, buta va o‘tlarga bo‘linishi. Bog‘, xiyobon va o‘rmon. *G‘o‘za va uni parvarish qilish.* Paxtadan tayyorlanadigan mahsulotlar. *Donli ekinlar:* bug‘doy, sholi va makkajo‘xori, ularni parvarish qilish, hosilini yig‘ib olish. *Begona o‘tlar:* zarpechak, g‘umay, sho‘ra va salomalaykum. Ekin maydonlarni begona o‘tlardan tozalash. *Kartoshka, sabzavotlar,* qulupnay, poliz ekinlari, mevali daraxtlar, mevali buta o‘simpliklari, tok. Ularni parvarish qilish va hosilini yig‘ishtirib olish. *Manzarali o‘simpliklar.* Manzarali o‘simpliklar-ning ahamiyati, ularni ko‘paytirish va parvarish qilish. Maktab gulzori. Gulzor o‘simpliklari, ularni ko‘paytirish va parvarish qilish. *Dorivor o‘simpliklar.* Ularning shifobaxshlik xususiyatlari. *Tut daraxti,* uni parva-rish qilish. *Ipak qurti,* uni boqish. Pilla yig‘im-terimi. Undan ipak olish.

Hayvonot olami (5 soat): Foydali va zararkunanda hasharotlar. May qo‘ng‘izi va uning hayoti. *Qushlar,* ularning ahamiyati. Hasharotxo‘r qushlar. Xonaki parrandalar. *Uy hayvonlari,* ularning kelib chiqishi. Qoramollar, qo‘ylar, otlar, ularni parvarish qilish. *Hayvonlarning xilma-xilligi.* Baliqlar, baqa va qurbaqa. O‘txo‘r va go‘shtxo‘r hayvonlar. Ozuqa zanjiri.

Sog‘ligimizni saqlaylik (4 soat): Odam tanasining tuzilishi. Teri, skelet va muskullar, ularning vazifalari. *Yurak va qon tomirlari.* O‘pka va nafas olish. Havoning inson organizmi uchun ahamiyati. *Ovqatlanish.* Ovqatning hazm qilinishi. Ovqatlanish qoidalari. *Nerv sistemasi.* Bosh miya, orqa miya va nervlar, ularning vazifalari. Dam olishning ahamiyati. Chekish, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarning odam organizmiga ta’siri.

Ekologiya (2 soat): Tabiat va inson – bir butun. Ekologiya. Ekologik halokatlar, ularning oldini olish. “O‘zbekiston Respublikasining “Qizil kitobi”. “Qizil kitob”ga kiritilgan o‘simplik va hayvonlar, ularni asrash.

O‘quv yili davomida o‘tilganlarni takrorlash (1 soat)

4-sinf Tabiatshunoslik (34 soat, haftasiga 1 soatdan)

Kirish (1 soat): Yozgi kuzatishlar. O‘simplik va hayvonlar hayotidagi yozgi o‘zgarishlar. Jonajon o‘lkamiz tabiatni.

Yer – Quyosh sistemasidagi sayyora (7 soat): Yulduzlar. Quyosh – eng yaqin

yulduz. Quyosh sistemasidagi sayyoralar. Kometalar va meteorlar. Yer – *sayyora*. Yerning tuzilishi va o‘lchami. Sayyoramizning tabiat go‘zalliklari. Globus – Yerning modeli. Shimoliy qutb, Janubiy qutb, ekvator. Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi: kun va tun. Yerning Quyosh atrofida aylanishi: yil fasllarining davriy almashinishi.

Yer yuzasi tabiatining xilma-xilligi (15 soat): Yarimsharlar xaritasi. Quruqlik va suvliklarning xaritada tasvirlanishi. Xaritalarning turli-tumanligi. O‘zbekiston tabiiy xaritasi. Yer yuzasining asosiy shakllari: tog‘, tekislik va okeanlar. Ularning tabiiy xaritada tasvirlanishi. O‘zbekiston hududidagi tog‘ va tekisliklarning tabiiy xaritadagi tasviri. *O‘lkamiz hududidagi asosiy daryolar*, ko‘llar, kanallar, suv omborlari. Suvni muhofaza qilish. *O‘rmon tabiati*. O‘lkamizdagi o‘rmonlar. O‘rmonlardagi o‘simlik va hayvonot dunyosi. O‘rmon tabiatini asrash. *Cho‘l tabiati*. O‘zbekiston hududi-dagi cho‘llar. Cho‘llardagi o‘simlik va hayvonot dunyosi. Cho‘llarning o‘zlashtirilishi. *Tog‘ tabiati*. O‘lkamizdagi tog‘lar. Tog‘lardagi o‘simlik va hayvonot dunyosi. Tog‘ tabiatini muhofaza qilish. *Dasht tabiati*. O‘zbekiston dashtlari. Dashtlardagi o‘simlik va hayvonot dunyosi. *O‘lkamiz hududidagi Yer osti boyliklari*. Respublikamizda qazib olinadigan asosiy foydali qazilmalar. Yer osti boyliklarini tejash. *Qo‘riqxonalar*. Insonning tabiatga ta’siri. O‘zbekiston qo‘riqxonalarida saqlanayotgan noyob hayvonlar. Yo‘qolib borayotgan hayvon turlari, ularni asrash va ko‘paytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.H H Akhmadovich Khoja nasriddin afandi as people’s hero . AKADEMIA : AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL 11(2).1562.
- 2.T. Khoja o’g’li, K H Ahmadovich Advanced Characteristiks of the Tradition of Using Uzbek Folk Humor Art in Written Literature. Amerikan Journal of Social and Humanitarian Research 3 (9).1-4.
- 3.K K Akhmadovich, NS Ubaydullayevna THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF EDUCATIONAL INTEGRATIONS IN THE FORMATION OF INDEPENDENT WORK IN PRIMARY GRADES.Conferencea, 66-75..
- 4.K K Akhmadovich, O B Togmurodovich NEW STAGES AND PRACTICAL CONDITIONS FOR CREATING NATIONAL TEXTBOOKS AND ALPHABET BOOKS.Conferencea, 54-58.
- 5.K K Akhmadovich, SG Badriddinnovna THE CONCERT OF READING, SPECIAL FEATURES OF CHILDREN’S READING E Conferencea,28-33.

6.KK Akhmadovich, N O Alisherovna THE AESTHETIC VALUE OF LINGUISTIC FLORONYMS IN WORKS OF ART IN AROUSING LAUGHTER 59-63.

7.K K Akhmadovich, O B Togmurodovich THE ISSUE OF THE CONTENT OF EDUCATION IN THE HISTORY OF THE PEOPLES OF THE EAST Conferencea, 95-101.

8.K K Akhmadovich, S G Badriddinovna HISTORICAL GENESIS OF UZBEK CHILDREN'S READING, PRINCIPLES OF DEVELOPMENT AND AESTHETIC EXPRESSION OF NATIONALITY IN THEM E Conference Zone, 47-51.

9.K K Akhmadovich, N O Alisherovna THE PROBLEM OF AROUSING LAUGHTER IN UZBEK PROSE BASED ON LINGUISTIC FAUNIMS Conference 90-94.

10.THE CONCERT OF READING, SPECIAL FEATURES OF CHILDREN'S READING KK Akhmadovich, SG Badriddinovna e Conference Zone, 28-33.

11.THE AESTHETIC VALUE OF LINGUISTIK FLORONYMS IN WORKS OF ART IN AROUSING LAUGHTER KK Akhmadovich, NO Alisherovna Conferencea 59-63.

12.Ahmadovich H. H. et al. IJODIY TOPSHIRIQLAR O 'QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI VOSITASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 293-294.

13.Ahmadovich H. H. et al. BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA O 'ZLASHTIRISH JARAYONINING PSIXO-DIDAKTIK ASOSLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 332-334.

14Ahmadovich H. H. et al. O 'QUVCHILARNING BILUV FAOLLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN DARSdan TASHQARI ISHLAR VA ULARNI TASHKIL ETISH METODIKASI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 343-345.

15.Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. O 'QUVCHILAR O 'ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 306-309.

16Akhmadovich H. H., Aminovna A. S. BOSHLANG 'ICH SINF O 'QISH DARSLARIDA DIDAKTIK O 'YIN VA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 100-102.

17.Ahmadovich H. H., Amrulloyevna S. D. RUNN BITIKLARI AXLOQ VA VATANPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 248-250.

18.Ahmadovich K. H., Bahriiddinovna S. G. Development and practical application of acmeological technologies of student assessment diagnose //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – T. 11. – №. 6. – C. 141-145.